BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHI PEDAGOGLARINI KASBIY TAYYORLASHDA MULTIMEDIALI O‘QUV MAJMUALARINI LOYIHALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Umirzoqova Malika Mamadi qizi
xalqaro nordik universiteti tadqiqotchisi

Qabul qilindi: 29.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 30.10.2025
Tasdiqlandi: 31.10.2025

Kalit so‘zlar:
oshlang'ich sinf, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy texnologiyalar, pedogoglar, pedagogik tadqiqotlar, ta'lim tizimi.

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida dunyoning rivojlangan mamlakatlari kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Endilikda mamlakatning iqtisodiyoti, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o‘rni axborot-texnologik rivojlanishning holatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2005-yil 28-sentabrdagi PQ-191-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli, “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2006-yil 16-fevraldagi 25–sonli Qarorlarining qabul qilinishi mazkur masalaga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

Ma’lumki, fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan, fan va texnikaning yangi soha hamda bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo‘lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy

tayyorgarligi yuksak darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda ta’lim sohasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga qaramay, ta’lim jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni, o‘qitishning yangi metodlari, shakllari va vositalari bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir o‘qituvchining o‘z faniga va barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid axborotlarni muntazam o‘rgana borib, ularni o‘z mehnat faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ko‘tarishda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o‘quv dasturlari mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali, zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, ular bilan bog‘liq metodik yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

O‘qituvchilarning axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan quyidagilarni qayd etish mumkin:

oliy pedagogik ta’lim muassasalari talabalari – bo‘lajak o‘qituvchilarni axborot va kommunikatsion texnologiyalarni amaliyotda qo‘llashga uzluksiz ravishda tayyorlashda ilmiy asoslangan tizimning mavjud emasligi;

fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining bugungi darajasi bilan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta’minlash jarayoni orasidagi nomuvofiqlikning mavjudligi;

oliy pedagogik ta’lim muassasalarining yagona elektron axborot-ta’lim muhiti va integrallashgan o‘quv-ilmiy resurslarning yaratilmaganligi;

ta’lim jarayonini axborotlashtirish borasida to‘plangan ilg‘or tajribalarning amaliyotga yetarlicha joriy etilmaganligi;

zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish imkoniyatini beruvchi elektron o‘quv-metodik majmualarning yetarlicha yaratilmaganligi.

Bundan tashqari, pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish masalalariga ilmiy muammo sifatida qarash zaruriyati:

jamiyat hamda ta'lim tizimining axborotlashib borishi bilan bog'liq ravishda jahon hamjamiyatida yuz berayotgan o'zgarishlar;

axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim mazmuni hamda jarayonlariga joriy qilinishi tub ijobiy o'zgarishlarga olib kelayotganligi;

turli fan o'qituvchilarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga tayyorlashning yaxlit muammo sifatida namoyon bo'layotganligi bilan yanada dolzarblik kasb etadi.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo'lajak o'qituvchining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo'lishi ma'lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog'liqdir. Shu sababli, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Quyida Oliy ta'limni rivojlantirishga oid ayrim muhim qarorlar va ularning ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda qabul qilgan O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "2030-yilgacha Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da milliy ta'lim tizimini yangi natijaga erishishga yo'naltirishda "Universal bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning yangi tizimi, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyat va shaxsiy mas'uliyat tajribasi, ya'ni zamonaviy asosiy kompetensiyalar" sifatida xizmat qilishi keltirib o'tilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 26-iyuldagi 327-sonli buyrug'i oliy ta'lim tizimida muhim yangiliklarni va o'zgarishlarni belgilovchi hujjatdir. Bu buyruq, asosan, oliy ta'lim muassasalarining ishlash tartibi, o'quv jarayonidagi yangi talablar va ta'limda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan. Buyruqda ta'limning sifatini oshirish, yangi o'quv metodikalarini joriy etish, talabalarga yanada ko'proq imkoniyatlar yaratish kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

3. 2020-yil 5-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF–6097-sonli Farmonida turli sohalar bilan bir qatorda, ta'lim yo'nalishini raqamlashtirishga oid qator vazifalar belgilangan edi. Ushbu hujjat bilan ta'lim dargohlarini yuqori tezlikdagi Internet

bilan ta'minlash, o'quvchilarning baholarini shaffof tarzda qayd etib borish maqsadida elektron kundalik tizimini joriy etish va boshqalar shular jumlasidan.

4. "Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish"ga oid qarorlar, Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilingan. Bu qarorlar oliy ta'lim muassasalariga o'z faoliyatini yanada samarali tashkil etish va moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimediali o'quv majmualarini loyihalashtirish bilimlar, usullar tizimi va faoliyat tajribasi, hissiy qadriyatli munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Bilim o'quv materialining tarkibiy qismi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ontologik, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlash haqida umumiy tasavvurni shakllantirish;
- me'yoriy, xotirada idrok etish va fiksatsiyani ta'minlovchi bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- motivatsion, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashning ahamiyati va qiymati haqida ma'lumotlar.

Xulosa:

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlash bo'yicha multimediali o'quv majmuasida bilimlarning bu funksiyalari atamalar, tushunchalar, nazariyalar, faktlar, huquqiy hujjatlar, sxemalar, jadvallar, illyustratsiyalar, xulosalar, plakatlar va boshqa vositalar orqali aks ettiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlash bo'yicha bilimlar iyerarxik tuzilma shaklida taqdim etilishi mumkin emas, chunki ular har xil sohalardan tanlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, M. (2022). Multimediya texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
2. Karimova, D. (2023). Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Tashkentov, S. (2023). Pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
4. Qodirova, N. (2022). Ta'limda multimediya vositalaridan foydalanish. Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti.
5. Raxmonov, A. (2023). Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik ijodkorlik. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
6. Ismoilov, S. (2023). Multimediya o'quv majmualarini yaratish usullari. Namangan: Namangan Davlat Universiteti.

7. Nurmatova, L. (2022). Ta'limda zamonaviy metodlar va texnologiyalar. Andijon: Andijon Davlat Universiteti.